

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**NOSIROV IQBOLJON QOBILJON O‘G‘LI**

**TAKRORIY EKILGAN SOYA NAVLARIDAN MO‘L VA ERTAKI HOSIL  
OLISH AGROTEXNOLOGIK ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH  
(Andijon viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida)**

**06.01.08–O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**ANDIJON–2023**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation’s abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**on agricultural sciences**

**Nosirov Iqboljon Qobiljon o‘g‘li**

Takroriy ekilgan soya navlaridan mo‘l va ertaki hosil olish agrotexnologik elementlarini ishlab chiqish (Andijon viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida).....3

**Носиров Икболжон Кобилжон угли**

Разработка агротехнологических элементов получения высоких и ранних урожаев из сортов сои повторного посева (в условиях лугово-сероземных почв Андижанской области).....21

**Nosirov Iqboljon Qobiljon o‘g‘li**

Development of agricultural technology elements for obtaining high and early yields of re-sown soybean varieties (in the conditions of meadow-serozem soils of the Andijan region).....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....43**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**NOSIROV IQBOLJON QOBILJON O‘G‘LI**

**TAKRORIY EKILGAN SOYA NAVLARIDAN MO‘L VA ERTAKI HOSIL  
OLISH AGROTEXNOLOGIK ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH  
(Andijon viloyatining o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida)**

**06.01.08–O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**ANDIJON – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Qx799 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.andqxai.uz](http://www.andqxai.uz);) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Teshayev Fatullo Juraqulovich  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Abduraxmonov Sodiqjon Obidovich.  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor  
Abduraxmonov Xusniddin Eshmamatovich  
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ikmiy hodim

**Yetakchi tashkilot:** Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 17 » 03 soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170600 Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'ha ko'chasi 1-uy. Tel.: (+99874) 373-10-54; faks: (+99874) 373-13-63; e-mail: [agai\\_info@edu.uz](mailto:agai_info@edu.uz); Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 6239/1-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuygan-yor shaharchasi, Oliygo'ha ko'chasi 1-uy, Axborot-resurs markazi binosi. Tel.: (+99874) 373-10-54).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 04 » 03 kuni tarqatildi.  
(2023 yil « 04 » 03 dagi 33 -raqamli reestr bayonnomasi).



**A.Isashov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.

**A.N.Jo'rayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d (PhD), dotsent.

**K.S.Komilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.n. dotsent.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini oshirish va saqlash, aholini oqsil hamda ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda soya ekini muhim ahamiyat kasb etadi. "Dunyo bo'yicha 2020 yilda jami 353,46 mln. tonna soya yetishtirilib, bu 2019 yilda yetishtirilgan 336,33 mln. tonna soya hosiliga nisbatan 5,1% ga ko'paygan. Soya donini yetishtirish bo'yicha asosan Braziliya va AQSH davlatlari yetakchi hisoblanib, yetishtirilgan soya don hosilining 34% Braziliyaga, 32% esa AQSH ga to'g'ri kelmoqda"<sup>1</sup>. "2023 yilda dunyoda rekord darajadagi 389 mln. tonna soya yetishtirilishi mumkinligi Xalqaro don kengashi (IGC) tahlilchilari tomonidan so'nggi hisobotida e'lon qilindi. Mutaxassislarning tahminlari to'g'ri bo'lsa, moyli o'simliklarning yalpi hosili ko'rsatkichlari 2021-2022 yilgi mavsum natijalaridan 11 foizga ortishi mumkin"<sup>2</sup>. Aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishda soyadan yuqori va ertaki hosil yetishtirishda defoliantlardan foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyoda soya ekinini yetishtirishning zamonaviy resurstejamkor agrotexnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, soya navlarining urug'larini maqbul ekish me'yori va muddatlarini to'g'ri tanlash natijasida sifatli va erta hosil yetishtirishda defoliantlarni qo'llashni yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishilmoqda. Mamlakatimizda bir yilda bir maydondan ikki marta xosil olish uchun barcha sharoitlar mavjud bo'lib, bir vaqtning o'zida ham don, ham oqsil va moy muammolarini hal etadigan soya o'simligi ana shunday takror ekiladigan ekinlar sirasiga kiradi. Takroriy ekin sifatida ekiladigan soyadan yuqori hosil olish uchun bir qancha texnologik tadbirlar majmuasining muammolarini hal qilish talab qilinadi. Bunda har bir iqlim sharoitiga mos soya navlarini tanlash, ko'chat qalinligini to'g'ri belgilash, ertaki va sifatli don hosili yetishtirishda defoliantlar me'yorlarini aniqlash kabi yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirish, aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini hamda chorvani yem-xashakka bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish bo'yicha keng ko'lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmonida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish"<sup>3</sup> muhim strategik maqsadlardan biri sifatida belgilab berilgan. Shu jihatdan, respublikamizda takroriy ekin sifatida soyadan yuqori, ertaki va sifatli hosil yetishtirishda defoliantlarni qo'llash agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF 5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga

---

<sup>1</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/List\\_of\\_countries\\_by\\_soybean\\_production](https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_countries_by_soybean_production)

<sup>2</sup> <https://oleoscope.com/news/igc-mirovovoe-proizvodstvo-soi-v-2022-2023-mg-uvlichitsja-na-11/>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi, 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-sonli "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017 yil 14 martdagi «2017-2021 yillarda Respublikada soya ekishni tashkil etish va dukkakli ekinlar yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-2832-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 fevraldagi 105-sonli "Respublikada soya yetishtirish hajmlarini yanada ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur soxaga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishlari muayyan darajada hizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning V "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muxofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Soyaning asosiy hamda takroriy ekin sifatida ekib, bir yilda ikki hosil olish bo'yicha respublikamiz olimlaridan D.Yormatova, X.N.Atabayeva, I.A.Israilov, A.Ruziyev, A.I.Panjjiyev, M.Mannapova, M.Sattarov, I.I.Abitov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Xorijiy olimlar M.V.Tishenko, S.V.Kadirov, N.Korsakov, B.Tyutyunikov, A.M.Saldayev, M.N.Litov, V.V.Borodichev, A.I.Shuls, D.A.Paxomov, O.A.Belik, L.Xiangjun, A.Ping, I.S'hinobu, W.Bekere va boshqa olimlar tomonidan soyani defoliatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Hozirgi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligida iqlim sharoitga mos soyaning yangi mahalliy navlarini takroriy ekin sifatida parvarishlashda ekish me'yorlari hamda yetishtirilgan hosilni kuzning yog'in-sochiga qoldirmay erta muddatlarda yig'ishtirib olishda defoliantlarning ta'siri va ularni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining "Bir maydondan bir yilda 2-3 xil qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2018-2021 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi.** Andijon viloyati o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida parvarishlanayotgan yangi mahalliy soya navlaridan ertaki hamda yuqori hosil olishda agrotexnologiya elementlarni ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- turli ko'chat qalinligiga bog'liq holda soyaning unib chiqishini aniqlash;
- turli ko'chat qalinligiga bog'liq holda soya navlarining o'sish-rivojlanishi, quruq moddalar to'planishi va o'simlik barg sathi shakllanishiga ta'sirini aniqlash;
- soyada defoliantlarni qo'llashdan oldin va defoliatsiyadan keyin qurigan, yarim qurigan, yashil barglar sonini, yetilgan dukkaklar hamda yetilmay qolgan dukkaklar sonini aniqlash;
- turli ko'chat qalinligiga bog'liq holda qo'llanilgan defoliantlar me'yori va

muddatlarining soya doni hosildorligiga, sifat ko'rsatkichlariga, oqsil hamda moy miqdoriga ta'sirini aniqlash;

mahalliy soya navlaridan ertaki va sifatli don hosili yetishtirishda qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarni iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Andijon viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari, ertapishar Oyjamol, o'rta-ertaki To'maris MAN-60 soya navlari, turli ko'chat qalinliklari, UzDEF defolianti olingan.

**Tadqiqotning predmeti** soya navlarining o'sishi, rivojlanishi, turli ko'chat qalinligida dukkaklarining shakllanishi va ularga qo'llanilgan defoliant me'yorlarining ta'siri, soya barglarining to'kilishi, dukkaklarning yetilishi, hosildorlik, donning sifat ko'rsatkichlari va moyning sifati hamda iqtisodiy samaradorligini baholash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy izlanishlar dala va laboratoriya sharoitlarida olib borilib, fenologik kuzatuvlar, biometrik o'lchashlar va boshqa tahlillar hamda hisob kitob ishlari "Методика проведения полевых агротехнических опытов с масличными культурами" (Krasnodar 2010), "Defoliantlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" (1993, 1994, 2004), "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007) qo'llanmalari asosida olib borilgan. Don sifat ko'rsatkichlaridan oqsil miqdori Keldal uslubi bo'yicha, moydorligi (moysizlantirish) kuydirish orqali aniqlangan, tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlili B.A.Dospexov (1985) uslubida Microsoft Excel dasturi yordamida tahlil qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Andijon viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida ekib kelinayotgan ertapishar hamda o'rta-ertapishar yangi mahalliy soya navlaridan ertaki, yuqori sifatli don hosili yetishtirish uchun maqbul ko'chat qalinligi hamda dukkaklar 50-55% va 60-65% pishib yetilgan muddatlarda defoliant qo'llash me'yorlari aniqlangan;

soya dukkaklarining erta pishib yetilishini ta'minlash maqsadida UzDEF defoliantining samaradorligi ilmiy-nazariy tomondan asoslangan;

soya navlarining ko'chat qalinligi hamda defoliant qo'llash muddatlari va me'yoriga bog'liq holda don hosildorligi va sifat ko'rsatkichlari ortishi, ya'ni 1,1-6,7 s/ga don hosili, 0,1-1,5% gacha oqsil miqdori oshganligi aniqlangan;

soya ekinining barglarini to'kilishiga, donlarining pishishi, bir dukkakdagi don vazni, don hosildorligi hamda donning sifat ko'rsatkichlariga UzDEF defoliantini 3,4 va 5 l/ga me'yorlarda qo'llnilganda ijobiy ta'siri va iqtisodiy samaradorligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Tadqiqotlarda soya dukkaklarining 50-55 va 60-65% pishganda qo'llanilgan defoliant ta'sirida dukkaklar yetilishi, oqsil miqdori, donning kimyoviy tarkibiga hamda hosildorlikka ta'siri aniqlanib, qo'llanilgan defoliant dukkaklarni 60-65% pishganda ijobiy ta'sir etib, donning biologik yetilishini ta'minlaganligi isbotlangan;

Olib borilgan tadqiqotda soyaning Oyjamol navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga bo'lgan, dukkaklar 50-55% hamda 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3 l/ga me'yorda qo'llanilganda don hosili 25,1-25,8 s/ga ni tashkil etib, UzDEF defolianti qo'llanilmagan nazoratga nisbatan 4,7-5,6 s/ga gacha, urug'larni qo'shqator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi

600-700 ming tup/ga bo'lgan, UzDEF defoliantini 5 l/ga me'yorda qo'llanilganda don hosili 28-28,4 s/ga ga teng bo'lib, UzDEF defolianti qo'llanilmagan nazoratga nisbatan 6,6-6,7 s/ga gacha qo'shimcha hosil olishga erishilgan;

Soyaning To'maris MAN-60 navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya tadbiri dukkaklar 50-55% hamda 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 4 l/ga me'yorda qo'llanilganda UzDEF defolianti qo'llanilmagan nazoratga nisbatan 2,0-3,3 s/ga gacha, urug'larni qo'shqator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 600-700 ming tup/ga belgilangan, defoliant qo'llanilmagan nazoratga nisbatan 3,5-4,2 s/ga gacha qo'shimcha hosil olishga erishilgan;

Takroriy ekin sifatida soya navlarini turli ko'chat qalinliklarida ekib, dukkaklarni yetilish muddatlariga bog'liq holda defoliantning maqbul me'yorlari qo'llanilganda, avvalo defoliant ta'sirida hosildorlikning 1,1-6,7 s/ga gacha oshishi hisobiga defoliatsiya qilinmagan variantlarga nisbatan ko'proq iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Bunda, soya navlari bo'yicha mos ravishda shartli sof daromad 1476,2-2297 ming so'm; 346,6-1422 ming so'mgacha, rentabellik darajasi 26,3-39,4; 6-24,3 foizgacha oshganligi aniqlagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining dala va laboratoriya usullaridan foydalangan holda variatsion-statistik ishlovdan o'tkazilganligi hamda olingan nazariy natijalarning amaliy ma'lumotlarda tasdiqlanganligi, tajriba natijalarining milliy va chet el ilmiy tadqiqotlari bilan taqqoslanganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalarning mosligi, to'plangan ma'lumotlar mutaxassislar tomonidan tasdiqlanib baholanganligi va tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga yangi agrotexnologiyalarni qo'llash sohasida keng joriy qilinganligi hamda tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarida muhokama qilinganligi, shuningdek mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Andijon viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida ekib kelinayotgan soya navlari dukkaklarining defoliatsiyadan oldin rivojlanish bosqichlari ilmiy asoslangani, UzDEF defoliantining soya dukkaklarining pishib yetilishiga ta'siri o'rganilib, bunda ushbu defoliantning dukkaklar yetilishi, oqsil miqdori, donning kimyoviy tarkibiga, hosildorlikka ta'siri hamda soya defoliatsiyasi yo'nalishidagi izlanishlarning nazariy asoslarini yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqarishda soya ekinidan ertaki va yuqori hosil olishda defoliatsiyadan samarali foydalanish, takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy soya navlarini erta yetishtirish uchun defoliatsiya o'tkazishning maqbul me'yor va muddatlari bo'yicha ilmiy asoslangan ishlanmalarni amaliyotga joriy etilganligi bilan ifodalanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Soya dukkaklarini biologik yetilishini inobatga olgan holda UzDEF defoliantini qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Soya dukkaklarining biologik yetilishiga qarab defoliantni qo'llash borasida «Takroriy ekin sifatida ekilgan soya defoliatsiyasini sifatli o'tkazish» mavzusidagi

tavsiyanoma tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 11 oktabrdagi 07/27-04/7371-son ma'lumotnomasi). Mazkur tavsiyanoma Andijon viloyatining paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va klasterlarda soyadan yuqori, ertaki va sifatli hosil yetishtirishda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

Soya navlarining dukkaklarini biologik yetilishini inobatga olgan holda maqbul qo'llash me'yori va muddatlarda defoliantni qo'llash texnologiyasi Andijon viloyati, Paxtaobod hamda Oltinko'l tumanlarida jami 74,6 gektar maydonlarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 11 oktabrdagi 07/27-04/7371 son ma'lumotnomasi). Buning natijasida soyaning Oyjamol navini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3 l/ga me'yorda qo'llanilganda 27,2 s/ga don hosili olinib, rentabellik darajasi 62,5% ga, shu navning urug'larini qo'shqator usulida ekib, nazariy ko'chat qalinligi 600-700 ming tup/ga dukkaklar 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 5 l/ga me'yorda qo'llanilganda 28,0 s/ga don hosili olishga erishilib, rentabellik darajasi 64,3% ga teng bo'ldi.

Soyaning To'maris MAN-60 navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga, dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 4 l/ga me'yorda qo'llash texnologiyasi Oltinko'l tumanida 31,9 gektarga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 11 oktabrdagi 07/27-04/7371 son ma'lumotnomasi). Natijada 23,8 s/ga don hosili olinib, rentabellik darajasi 54,5% ga, urug'larni qo'shqator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 600-700 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 5 l/ga me'yorda qo'llanilganda 26,2 s/ga don hosili olinib, rentabellik darajasi 60,2% ga teng bo'ldi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dala sharoitida olib borilgan tajribalar Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha tayyorlangan hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari bo'yicha jami 4 ta, shundan 2 ta respublika va 2 ta halqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy maqola hamda 1 ta tavsiyanoma hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor

yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Takroriy ekilgan soya navlaridan mo'l va ertaki hosil olish agrotexnologik elementlarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida soya navlarining hosilini yig'ishtirish uchun defoliatsiya hamda desikatsiya usullaridan foydalanish muddatlari va me'yorlarini, defoliantlar qo'llashni ekin hosilining sifat ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan.

Ushbu bo'lim yakunida soya ekini defoliatsiya hamda desikatsiya qilish agrotexnologiyasi bo'yicha mamlakatimiz sharoitida juda kam darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi va ayniqsa soyadan ertaki don hosili olishni ta'minlash uchun uni defoliatsiya va desikatsiya qilishning samaradorligi o'rganilmaganligi va bu bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish dolzarb ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazish uslublari va sharoiti**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o'tkazilgan hududning tuproq va iqlim sharoitlari, tadqiqot o'tkazish tizimlari va uslublari, hamda tajriba dalasida amalga oshirilgan agrotexnik tadbirlar keltirilgan.

Dala tajribalari Andijon viloyati Andijon tumanida joylashgan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi "Axborot-maslahat markazi (extension center)" davlat unitar korxonasi o'tloqi bo'z tuproqlarida o'tkazildi.

Andijon viloyati shimoliy-sharqdan va Janubdan Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lsa, g'arbdan Farg'ona viloyati bilan va shimoliy-g'arbdan esa Namangan viloyati bilan chegaradoshdir. Ushbu viloyat Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, iqlimi keskin kontinental, quyoshli kunlarning uzunligi, yozning quruq va issiq kelishligi, qish kunlari sovuq hamda o'zgarib turishi, gidrotermik me'yorlarni bir-biridan sezilarli farqlanishi bilan xarakterlanadi.

Yog'ingarchilikning eng ko'p qismi baxorda yog'adi, lekin bu baxori qisqa, obxavosi esa o'zgaruvchidir. Bu o'simlikni suv bilan ta'minlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Baxordagi eng oxirgi sovuq erta bo'lsa 9 fevralda, kechi bilan 21 aprelda bo'ladi. O'simliklar amal davrini to'xtatadigan kuz oxiridagi birinchi sovuq 9 oktabr 30 noyabr oralarida bo'ladi.

Tadqiqot o'tkazilgan joyning iqlimi keskin kontinental. Yanvar oyining o'rtacha harorati  $-4^{\circ}$  daraja, iyul oyida esa  $+24^{\circ}$   $+28^{\circ}$  daraja. Yiliga o'rtacha 195-200 mm. yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 235 kun. Qishloq xo'jalik ekinlarini o'sishi, rivojlanishi, hosil to'plashi, hosilni pishib yetilishi hamda hosildorligi yilning iqlim sharoiti bilan bevosita bog'liq bo'lib, muayyan yildagi ekinlardan olinadigan hosil taqdirini hal qiluvchi muhim tabiiy omil hisoblanadi.

Andijon viloyatidagi yer maydonlari asosan to'q tusli bo'z, tipik bo'z, och tusli bo'z, o'tloqi-bo'z va bo'z-o'tloqi, o'tloqi hamda botqoq-o'tloqi tuproqlarni tashkil

qiladi.

Sugʻoriladigan tipik va och tusli boʻz tuproqlar - 25,4% ni, boʻz oʻtloqi – 5% ni, oʻtloqi tuproqlar – 35% ni, oʻtloqi botqoq-10,2% ni hamda shoʻrxok va ularning komplekslari 9 foiz atrofida maydolarini egallaydi. Tadqiqot olib borilgan oʻtloqi boʻz tuproqlarda sizot suvlari 2,5 -3,0 metr chuqurlikda joylashgan boʻlib, nisbatan kamroq namlanib turadigan sharoitda shakllangan.

Olib borilgan tajribada 2 xil koʻchat qalinligida parvarishlangan soyada UzDEF (3,0-5,0 l/ga) defoliantini 2 xil muddatda (dukkaklar 50-55% va 60-65% yetilganda) qoʻllash samaradorligi oʻrganilgan.

Dala tajribalari 32 variantni oʻz ichiga oladi. 3 takrorlanishda va variantlar 1 ta yarusda joylashtirildi. Yakka qator ekilgan variantlarda har bir variantning umumiy maydoni 360 m<sup>2</sup>, qoʻshqator ekilgan variantlarda 540 m<sup>2</sup>, shundan hisoblisi 180 m<sup>2</sup> va 270 m<sup>2</sup> ni tashkil etdi. Tajribaning umumiy egallagan maydoni 1,44 gektar.

Ilmiy izlanishlar «Методика проведения полевых агротехнических опытов с масличными культурами» (Krasnodar 2010), “Defoliantlarni sinash boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar” (1993, 1994, 2004), “Dala tajribalarini oʻtkazish uslublari” (2007) qoʻllanmalari asosida olib borilgan. Don sifat koʻrsatkichlaridan oqsil miqdori Keldal uslubi boʻyicha, moydorligi (moysizlantirish) kuydirish orqali aniqlangan. Tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlili B.A.Dospexov (1985) uslubida Microsoft Excel dasturi yordamida tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning “**Defoliatsiyagacha soya navlarining morfobiologik va fiziologik holati**” deb nomlangan uchinchi bobida soya navlari urugʻlarining unib chiqishi, takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining oʻsuv davri davomiyligi, soya navlarining koʻchat qalinligi, soya navlarini oʻsish va rivojlanish koʻrsatkichlari, soya navlarining ekish meʼyorlari bilan bogʻlik holda biometrik koʻrsatkichlarini oʻzgarishi, soya navlarining tabiiy biologik holda barglari toʻkilishi va dukkaklarning yetilish darajasi yoritilgan.

Tajribada dukkaklarni pishib yetilishini tezlashtirish maqsadida qoʻllanilgan defoliatsiya tadbiri oʻtkazilgan variantlarda ekish meʼyori oshgan sari (600-700 ming tup/ga) navlarning biologik xususiyatlariga koʻra oʻsuv davri uzoqroq boʻlishi qayd etilgan.

Olib borgan tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, har xil ekish usullarida soya parvarishlanganda unib chiqish hamda shohlanish fazasining muddati bir-biridan katta farq boʻlmasligi, lekin, soyaning dukkaklarini pishishini tezlashtirish maqsadida Oyjamol navida UzDEF defoliantini 5 l/ga meʼyorda, Toʻmaris MAN-60 navini 4 l/ga meʼyorda defoliant qoʻllanilganda nazorat variantga nisbatan pishish davrini 9-14 kunga ertaroq boʻlishini taʼminlashga erishildi.

Shuningdek, ushbu bobda soya navlarining ekish meʼyorlari bilan bogʻliq holda biometrik koʻrsatkichlarini oʻzgarishi bayon qilingan boʻlib bunda, takroriy ekin sifatida soyaning Oyjamol navini urugʻlarini yakka qator usulda ekib, nazariy koʻchat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya tadbiri oʻtkazilmagan 1-variantda (Nazorat) dukkaklar soni 23,8 donani, dukkaklar vazni 14,2 grammni, bir oʻsimlikdagi don soni 49,7 donani, bir oʻsimlikdagi don vazni 5,9 grammni, 1000 dona don vazni esa 118,7 grammni tashkil etdi. Dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF

defoliantini 3 l/ga me'yorda qo'llanilgan 2-variantda boshqa (1, 3, 4-var) variantlarga nisbatan bir o'simlikdagi don soni 0,5-1,2 donagacha, bir o'simlikdagi don vazni 0,2-0,6 grammgacha, 1000 dona don vazni esa 1,2-9,0 grammgacha yuqori bo'lgani kuzatildi.

Soyaning Oyjamol navini urug'larini qo'shqator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 600-700 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 5 l/ga me'yorda qo'llanilgan 8-variantda dukkaklar soni 20,6 donani, dukkaklar vazni 13,1 grammni, bir o'simlikdagi don soni 43,4 donani, bir o'simlikdagi don vazni 5,4 grammni, 1000 dona don vazni esa 124,4 grammni tashkil etib, bu esa boshqa (5, 6, 7-var) variantlarga nisbatan bir o'simlikdagi don vazni 0,1-0,4 grammgacha, 1000 dona don vazni esa 2,8-10,2 grammgacha yuqori bo'lgani kuzatildi (1-jadval).

Takroriy ekin sifatida soyaning Oyjamol navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3 l/ga me'yorda qo'llanilganda hamda qo'shqator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 600-700 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 5 l/ga me'yorda qo'llanilganda yuqori natijalarga erishilgan.

1-jadval

Soyaning Oyjamol hamda To'maris MAN-60 navlarining biometrik ko'rsatkichlari (2019 y.)

Soya navi	Nazariy ko'chat qalinligi ming tup/ga	Defoliant me'yori l/ga	Dukkaklar 50-55% yetilganda					Dukkaklar 60-65% yetilganda				
			Dukkaklar		Don		1000 dona don vazni, g	Dukkaklar		Don		1000 dona don vazni, g
			soni, dona	vazni, g	soni, dona	vazni, g		soni, dona	vazni, g	soni, dona	vazni, g	
Oyjamol	400-500	Nazorat	23,8	14,2	50,5	5,9	118,7	23,6	14,1	50,3	5,7	118,3
		UzDEF 3 l/ga	22,9	14,6	50,9	6,5	127,7	23,0	14,6	52,0	6,6	126,9
		UzDEF 4 l/ga	22,4	14,3	50,4	6,3	125,0	22,7	14,5	51,5	6,5	126,2
		UzDEF 5 l/ga	22,2	14,1	49,8	6,3	126,5	22,6	14,4	51,6	6,6	127,9
	600-700	Nazorat	21,7	12,9	43,8	5,0	114,2	22,1	12,5	43,9	5,2	114,5
		UzDEF 3 l/ga	21,0	13,4	43,6	5,3	121,6	21,5	13,7	44,7	5,6	125,3
		UzDEF 4 l/ga	20,8	13,2	43,7	5,3	121,3	21,2	13,5	44,8	5,6	125,0
		UzDEF 5 l/ga	20,6	13,1	43,4	5,4	124,4	21,1	13,4	45,2	5,7	126,1
To'maris-MAN 60	400-500	Nazorat	24,2	13,7	48,7	6,2	128,4	24,5	14,0	48,3	6,0	128,1
		UzDEF 3 l/ga	22,1	14,1	50,2	6,7	133,5	24,2	15,4	52,5	6,9	131,4
		UzDEF 4 l/ga	22,8	14,5	51,7	6,9	133,5	23,7	15,1	52,9	7,1	134,2
		UzDEF 5 l/ga	22,4	14,3	50,8	6,6	129,9	23,5	15,0	53,4	7,1	133,0
	600-700	Nazorat	22,5	13,7	39,9	5,0	121,0	22,4	13,5	39,7	5,1	121,2
		UzDEF 3 l/ga	21,8	13,9	44,5	5,6	125,8	22,9	14,6	44,4	5,8	130,6
		UzDEF 4 l/ga	21,5	13,7	44,8	5,7	127,2	22,3	14,2	44,8	5,9	131,7
		UzDEF 5 l/ga	21,3	13,6	45,2	5,9	130,5	21,9	13,9	46,4	6,2	133,6

Olib borilgan tadqiqotlarda takroriy ekin sifatida soyaning To'maris MAN-60 navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya tadbiri o'tkazilmagan 17-variantda (Nazorat)

dukkaklar soni 24,2 donani, dukkaklar vazni 13,7 grammni, bir o'simlikdagi don soni 48,3 donani, bir o'simlikdagi don vazni 6,2 grammni, 1000 dona don vazni esa 128,4 grammni tashkil etdi.

Dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 4 l/ga me'yorda qo'llanilgan 11-variantda dukkaklar soni 22,8 donani, dukkaklar vazni 14,5 grammni, bir o'simlikdagi don soni 51,7 donani, bir o'simlikdagi don vazni 6,7 grammni, 1000 dona don vazni esa 133,4 grammni tashkil etdi

Shuni ta'kidlash joizki, takroriy ekin sifatida soyaning To'maris MAN-60 navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 4 l/ga me'yorda qo'llanilgan 11-variantda boshqa (9, 10, 12-var) variantlarga nisbatan dukkaklar soni 0,4-0,7- donagacha, dukkaklar vazni 0,8 grammgacha, bir o'simlikdagi don soni 3,4 donagacha, bir o'simlikdagi don vazni 0,7 grammgacha, 1000 dona don vazni esa 5,1 grammgacha yuqori bo'lgani kuzatildi.

Mazkur bobda shuningdek, soyaning Oyjamol va To'maris MAN-60 navlarini defoliatsiyadan oldingi barg to'kilishi va dukkaklar yetilishi xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Takroriy ekin sifatida soyaning Oyjamol navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3, 4 hamda 5 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda poya balandligi 51,3 sm gacha, barglar soni 20,5-21,1 donagacha, yarim qurigan barglar soni 6,7-6,8 donagacha, jami dukkaklar soni 22,2-22,9 donagacha, shundan yashil dukkaklar salmog'i 24,3-25,8% gacha, yarim yetilgan dukkaklar 21,9-22,8% gacha, yetilgan dukkaklar esa 52,1-53,4% gacha bo'lgani aniqlandi.

Oyjamol navini urug'larini qo'shqator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 600-700 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya tadbiri o'tkazilmagan hamda dukkaklar 60-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3, 4 hamda 5 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda poya balandligi 52,0-52,7 sm gacha, barglar soni 16,5-17,7 donagacha, yarim qurigan barglar soni 5,3-6,2 donagacha, jami dukkaklar soni 20,6-21,2 donagacha, shundan yashil dukkaklar salmog'i 27,7-29,8% gacha, yarim yetilgan dukkaklar 19,5-20,2% gacha, yetilgan dukkaklar soni esa 50,0-51,6% gacha teng bo'ldi.

Fenologik kuzatuvlarda takroriy ekin sifatida soyaning To'maris MAN-60 navini urug'larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya tadbiri o'tkazilmagan hamda dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3, 4 hamda 5 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda poya balandligi 56,7-57,5 sm gacha, barglar soni 20,4-21,3 donagacha, yarim qurigan barglar soni 6,1-6,9 donagacha, jami dukkaklar soni 22,1-22,8 donagacha, shundan yashil dukkaklar salmog'i 24,9-26,9% gacha, yarim yetilgan dukkaklar salmog'i 21,2-23,2% gacha, yetilgan dukkaklar soni esa 51,5-52,1% gacha teng bo'ldi.

Takroriy ekin sifatida soyaning To'maris MAN-60 navini urug'larini qo'shqator usulda ekib, nazariy ko'chat qalinligi 600-700 ming tup/ga belgilangan, defoliatsiya tadbiri o'tkazilmagan hamda dukkaklar 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3, 4 hamda 5 l/ga me'yorlarda qo'llanilgan variantlarda poya balandligi 60,4-61,9 sm gacha, barglar soni 16,3-17,2 donagacha, yarim qurigan barglar soni 9,4-10,8


donagacha, jami dukkaklar soni 21,9-22,9 donagacha, shundan yashil dukkaklar salmog'i 18,8-20,4% gacha, yarim yetilgan dukkaklar salmog'i 18,7-20,2% gacha, yetilgan dukkaklar salmog'i esa 60,5-60,9% gacha bo'lganligi olib borilgan fenologik kuzatuvlarimizda aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Turli ko‘chat qalinligida har xil me‘yorda defoliatsiya o‘tkazishni soya navlarining morfobiologik va fiziologik holatiga ta’siri”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida ko‘chat qalinligiga bog‘liq holda defoliantlarni qo‘llashni soyaning barg to‘kilishi va dukkaklar yetilishiga ta’siri, soya navlarining barg sathi yuzasi ko‘rsatkichlari, soya navlarining quruq massa to‘plashiga ko‘chat qalinligi va defoliatsiya me‘yorlarining ta’siri, soya navlarining don hosildorligiga ekish me‘yori va defoliatsiyaning ta’siri bo‘yicha olib borilgan izlanishlarning natijalarini tahlili bayon qilingan.

O‘rganilayotgan UzDEF defoliantini qo‘llash me‘yorlari va muddatlari soya o‘simligi barglari to‘kilishiga ta’siri bo‘yicha 6 va 12 kun o‘tib fenologik kuzatuvlar olib borilib, tahlillar o‘tkazilgan va olingan ma‘lumotlar natijalariga ko‘ra defoliatsiya o‘tkazilgandan so‘ng 6 kun o‘tib, yuqori ko‘rsatkichlar takroriy ekin sifatida soyaning Oyjamol navini urug‘larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko‘chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3 l/ga me‘yorda qo‘llanilgan 2-variantda qayd etilib, yashil barglar soni 4,4 donani, yarim qurigan barglar soni 9,1 donani, qurigan barglar soni 7,6 donani, yarim yetilgan dukkaklar soni 4,5 donani, yetilgan dukkaklar soni esa 17,1 donani (74,6% ni) tashkil etgani aniqlandi. Bu esa, nazorat hamda dukkaklar 50-55% pishib yetilganda defoliantini 4 hamda 5 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan variantlarga nisbatan yetilgan dukkaklar soni 1-2,6 donagacha, yoki 1,9-8,8% gacha yuqori bo‘lishi kuzatildi (1-rasm).

Urug‘larini qo‘shqator usulda ekib, nazariy ko‘chat qalinligi 600-700 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 5 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan 8-variantda yashil barglar soni 2,3 donani, yarim qurigan barglar soni 7,6 donani, qurigan barglar soni 7,8 donani, yarim yetilgan dukkaklar soni 4,2 donani, yetilgan dukkaklar soni esa 15,1 donani (73,1% ni) tashkil etgani kuzatildi. Bu esa, nazorat hamda dukkaklar 60-65% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3 hamda 4 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan variantlarga nisbatan yetilgan dukkaklar soni 0,2-1,5 donagacha, yoki 1,2-10,6% gacha yuqori bo‘lgani aniqlandi.

Soyaning To‘maris MAN-60 navini takroriy ekin sifatida parvarishlashda dukkaklarni erta yetilishini ta‘minlash maqsadida defoliatsiya tadbiri o‘tkazilgandan 6 kun o‘tib olib borilgan fenologik kuzatuvlarda ekinning urug‘larini yakka qator usulda ekib, nazariy ko‘chat qalinligi 400-500 ming tup/ga belgilangan, dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 4 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan 11-variantda yuqori natijalarga erishilib, yashil barglar soni 4,2 donani, yarim qurigan barglar soni 9,2 donani, qurigan barglar soni 7,9 donani, yarim yetilgan dukkaklar soni 5,2 donani, yetilgan dukkaklar soni esa 17,0 donani (74,5% ni) tashkil etib, bu esa, nazorat hamda dukkaklar 50-55% pishib yetilganda UzDEF defoliantini 3 hamda 5 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan variantlarga nisbatan yetilgan dukkaklar soni 0,6-1,3 donagacha, yoki 1,2-8,1 % gacha yuqori bo‘ldi.



**1-rasm. Ko‘chat qalinligiga bog‘liq holda defoliantlarni soyaning Oyjamol hamda To‘maris MAN-60 navlarini dukkaklar yetilishiga ta’siri.**

(Defoliatsiyadan 6 kundan so‘ng, %)


